


"Tashabbusli budget" loyihasiga bag'ishlangan matbuot anjumani bo'lib o'tdi

01-fevral 2024 12:15 1460

chop etish



Joriy yilning 31-yanvar kuni Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan "Tashabbusli budget" loyihasiga bag'ishlangan matbuot anjumani o'tkazildi.

Mazkur tadbirida vazirlik tomonidan Davlat budjeti siyosati departamenti direktori Sherzod Muxamedov, Moliya organlari hamda budget tashkilotlarining moliya-hisob bo'linmalari xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash o'quv markazi direktori Iroda Xamidova, Davlat budjeti siyosati departamenti bo'lim boshlig'i Azimjon Xasanov hamda mazkur departament xodimlari ishtirok etishdi.

Anjuman davomida vazirlik mutaxassislari tomonidan "Tashabbusli budget" jarayonining joriy yil 1-mavsumi uchun yo'naltiriladigan mablag'lar to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etildi hamda mutaxassislardan loyihalar kiritish bo'yicha tavsiyalar berib o'tildi.

Ma'lumot uchun, vazirlik tomonidan "Tashabbusli budget" jarayonining 1-mavsumiga loyiha kiritish bosqichi 1-fevraldan boshlanib, 20-fevralga qadar davom etishi e'lon qilingan edi.

Joriy mavsum uchun dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, tuman/shahar budgetlari hisobidan jami **3,0 trln so'mdan ortiq** mablag' yo'naltirilishi kutilayotgani ta'kidlandi.

Bundan tashqari, mas'ulalar tomonidan loyiha kiritish jarayonida fuqarolar nimalarga e'tibor qaratishlari lozimligi yuzasidan tavsiyalar berib o'tildi.

Matbuot anjumanida mutaxassislardan jurnalistlar tomonidan berilgan savollarga atroflicha javob berildilar.

2023-yilda "Tashabbusli budget" jarayonlari uchun 2022-yilga nisbatan qariyb ikki baravarga ko'p mablag' yo'naltirilib, o'tkazilgan ikkita mavsum doirasida mahallalarda umumiy qiymati **4,2 trln so'mlik** 4 183 ta loyiha amalga oshirilishiga erishildi.

Shu bilan birga, ushbu jarayonlarda ik bor respublikaning **barcha mahallalari ishtirok etib**, fuqarolar tomonidan o'rtacha 14 millondan ortiq (avvalgi yilga nisbatan 9 millonga ko'p) ovoz berildi.

Loyihalarning holatini to'g'ridan to'g'ri kuzatib borish va tahlil qilish imkonini berish maqsadida "Ochiq budget" axborot portalida maxsus sahifa, ya'ni "dashboard" ishga tushirildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budgetining, viloyatlar viloyat budgetlarining, Toshkent shahri shahar budgetlarining, tumanlar va shaharlar budgetlarining **o'zgarishlari namunalari**

файлни юклаб олиш (0.17 mb)

Qoraqalpog'iston Respublikasi budgeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budgetlari daromadlarining 2023-yil yanvar-dekabr oylari

файлни юклаб олиш (0.17 mb)

Qoraqalpog'iston Respublikasi budgeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budgetlari xarajatlarining 2023-yil yanvar-dekabr oylari IJRÖSI

